II. TEXNIK QISM

TEXNIK VAZIFA

1. Loyihaning to'liq nomi va loyihaning maqsadi

"Davlat chegarasida trasnport vositalariga veterinariya sanitariya ishlovi berishga mo'ljallangan zamonaviy innovatsion dezinfeksiya qurilmasini yasash".

Loyihaning maqsadi O'zbekiston Respublikasi hududiga hayvonlar kasalliklarining kirib kelishining oldini olish uchun zamonaviy innovatsion dezinfeksiya qurilmasini o'rnatish va dezinfeksiya vositalarini sarfini kamaytirishdan iborat.

2. Loyihani amalga oshirish asoslari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 apreldagi "Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma'muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4297-son qarori

3. Moliyalashtirish manbalari

Loyihani moliyalashtirish manbai O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti mablag'lari hisoblanadi.

4. To'lov shartlari

Oldindan to'lov 30%, keyingi to'lovlar bajarilgan ishlar oraliq dalolatnomasiga asosan.

5. Ishtirokchichiga qo'yiladigan talablar

Ishtirokchi quyidagi qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishi kerak:

1. Ushbu loyihani amalga oshirish uchun zarur tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarning (kamida 3 ta) mavjudligi.
2. Ushbu loyihaga o'xshash ishlarni amalga oshirganlik to'g'risidagi ma'lumotlar.

6. Xarid qilingan xizmatlar ro'yxati

Ilovaga muvofiq parametr bo'yicha sensorli sezuvchan dezinfeksiya tonneli, konditsioner bilan jihozlangan operator budkasi.

7. Xizmat muddati

Xizmatlar shartnoma bo'yicha oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 20 kundan oshmasligi kerak.

8. Xavfsizlik talablari

Ijrochi tomonidan ishlarni bajarishda yong'in, texnika va mehnat xafvsizligi qoidalari inobatga olinishi kerak.

Boshqa xavfsizlik talablari yo'q.

9. Chegara posti hududiga kirib chiqishga ruxsat olish

Agar g'olib kompaniyaning ishlarni bajaradigan biror xodimiga maxsus vakolatli organ tomonidan chegara posti hududiga kirib chiqishga ruxsat berish yuzasidan salbiy qaror qabul qilinsa Buyurtmachi shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

Chegara posti hududiga kirib chiqishga ruxsat berish maxsus vakolatli organning mutlaq vakolati hisoblanadi va ushbu jarayonda ishtirok etish buyurmachi vaokolati kirmaydi.

10. Yasaladigan uskunaning o'lchamlari

1. Uskunaning o'lchamlari:

- Balandligi ~5.30 metr
- Eni ~4 metr
- Uzunligi ~4 metr

*Amalda ishlatilayotgan dezinfeksiya to'sig'ini o'lchamlariga qarab mazkur inshootning o'lchamlari qisman o'zgarishi mumkin.

2.Dezinfeksiya inshootini yasashda ishlatiladigan materiallar:

- Metall profil 80x40x2 mm
- Metall profil 40x40x1.7 mm
- Leksan-60 m2
- Metall zakladka 300x300x10mm – 10 ta
- Profnastil 0,4 mm- 16 m²
- Plastik idish 500 litr-2 dona
- Havo kompressori 90 litr, 8 bar -1 dona
- Suv nasosi (Kuchlanish 380 volt, quvvati max. 60 litr/min, chiqish diametri 25) – 1 dona.
- Qarshi klapani (обратный клапан)-2 dona
- Suv sarfi uzeli (Узел расхода воды) -1 dona
- Suv tozalash filtri (Фильтр очистки воды (дисковый)) – 1 dona
- Elektr qutisi kabeli bilan (Эл.щитовая с кабельной разводкой (автомат и ручной))-1 komplekt.
- Elektroklapan (solenoid)-2 dona
- Fotodatchik – 1 komplekt
- Quvvatlantirish manbai 12/10 A. -1 dona
- 10 forsunkali, nerjavika dezinfeksiya to'sig'i ramasi (Дез.барьерная рама 10 форсуночная, нерж.) 1 uzel
- Konditsioner 9 BTU-1 dona
- Metiz-2 kg
- Suv ta'minoti tizimi (Система водоподвода)-1 uzel
- Anker bolti 16x200-40 dona
- Bo'yoq (gruntovka)-5 kg.
- Kulrang bo'yoq (metal uchun)-4 kg
- Bo'yoq eritma (Растворитель)- 6 litr
- Germetik (suv o'tkazmaydigan)-5 tuba.
- Shlang 6,5x10 (удлин. Распылителя)-20 p.m.
- Operator budkasi, Sendvich panel 100 мм, 3,2x2,5x2,5 m.ortiq bo'lmagan, tomi profnastil, aluminiy rom va eshik.

Dezinfeksiya qurilmasining taxminiy ko'rinishi quyidagi rasmda keltirilgan.

-



1-rasm. Dezinfeksiya qurilmasining taxminiy ko'rinishi

11. Xizmatlar natijalarini qabul qilish- topshirish tartibi

Ijrochi tomonidan bajarilgan ishlar ikki tomon o'rtasida topshirish qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirish asosida qabul qilinadi.

III. NARX QISM

1	Boshlang'ich narxi	150 000 000 so'm
2	Moliyalashtirish manbai	Byudjet mablag'lari
3	To'lov shartlari	Oldindan to'lov 30%, keyingi to'lovlar bajarilgan ishlar oraliq dalolatnomasiga asosan.
4	To'lov valyutasi	Milliy valyuta - o'zbek so'mi
5	Ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish joyi	Samarqand viloyati, Urgut tumani, Jartepa chegara posti
6	Xizmat ko'rsatish shartlari	6 oy kafolat
7	Taklif muddati	Takliflar berilgan kundan boshlab kamida 90 kun